



## “OLIJ TA’LIM JARAYONLARINI BOSHQARISH – HEMIS” AXBOROT TIZIMI MOBIL ILOVASINING IMKONIYATLARI

**Abdullayev Alisher Ilxamovich**

Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi, direktor  
(tel.: (71) 203-13-24, e-mail: a.abdullayev@edu.uz )

**Saitov Shukrullo Lutfullo o’g’li**

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi, bosh mutaxassis (tel.: (71) 55-520-08-08 (209), e-mail: sh.saitov@edu.uz )

**Pirmanov Oxunjon Baxridin o’g’li**

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi (tel.: (71) 55-520-08-08 (210) e-mail: o.pirmanov@edu.uz)

**Sayidov Farux Asatulloevich**

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi (tel.: (71) 55-520-08-08 (209) e-mail: f.sayidov@edu.uz )

**Dexkonboyev Islomjon Tolibjon o’g’li**

Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi, bo’lim boshlig’i  
(tel.: (71) 203-13-20, e-mail: i.tolibjonovich@edu.uz )  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10643007>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-February 2024 yil  
Ma’qullandi: 05- February 2023 yil  
Nashr qilindi: 10- February 2023 yil

### KEY WORDS

*Hemis mobile, ilova, ma’lumotlar bazasi, axborot tizimi, deadline, talaba, elektron shartnoma, reyting daftarcha, unilibrary*

### ABSTRACT

*Mazkur tadqiqot ishida “Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish – HEMIS” axborot tizimidan foydalanishda qator qulayliklar yaratishga imkon beruvchi mobil ilovaning yaratilishiga bo’lgan talab va ehtiyojning darajasi haqida so’z yuritiladi. Shuningdek, “Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish – HEMIS” axborot tizimi mobil ilovasining imkoniyatlari hamda raqamli xizmatlari to’g’risida mulohaza olib boriladi.*


Ayni kunlarda ta’lim sohasida faol qo’llanib kelinayotgan “Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish – HEMIS” axborot tizimi ko’plab qulaylik va imkoniyatlarni o’zida jamlay olgani bois bugungi ta’lim tizimida o’zining o’rnini topa oldi.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarini boshqaruvchi ushbu HEMIS axborot tizimi ayni vaqtlarda faollashib ulgurdi. Ushbu axborot tizimi “Ma’muriy boshqaruv”, “O’quv jarayoni”, “Ilmiy faoliyat” hamda “Moliyaviy boshqaruv” modullarini o’zida jam qiladi. HEMIS axborot tizimi oliy ta’lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma’muriy xodimlar, professor-o’qituvchilar va talabalarga elektron ta’lim xizmatlarini taqdim etadi. Axborot tizimi oliy ta’lim muassasalari bilan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi o’rtasida axborot ko’prigi vazifasini o’taydi hamda oliy ta’lim muassasalaridan olinadigan turli xil ma’lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularning qog’oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi.

HEMIS axborot tizimini takomillashtirish hamda talabalarga qulaylik yaratish maqsadida HEMIS axborot tizimining mobil ilovasi ishlab chiqildi. Ushbu mobil ilova

talabalarga mobil qurilmalar orqali HEMIS axborot tizimidan qulay tarzda foydalanishga xizmat qiladi hamda dars jadvallari, topshiriqlar, fan resurslari, o'zlashtirish ko'rsatkichlari, davomati, ta'lim jarayoniga oid hujjatlar va boshqa turdagi xizmatlardan foydalanish imkonini taqdim etadi.

Mobil ilovadan foydalanish jarayonlari quyidagi 1-rasmda keltirilgan:



1-rasm. HEMIS Mobile ilovasidan foydalanish sxemasi.

Mobil ilova "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish - HEMIS" axborot tizimining OTM qismi bilan integratsiya qilingan bo'lib, mobil ilovadan foydalanish uchun talabalar o'zlari tahsil oladigan oliy ta'lim muassasasini tanlab, HEMIS axborot tizimidagi login hamda parolini kiritishi kerak bo'ladi. Avtorizatsiya jarayonlari muvaffaqiyatli amalga oshirilganidan so'ng talabani shaxsiy kabinetini ochiladi hamda mobil ilovaning barcha funksiyalaridan foydalanish mumkin bo'ladi.

HEMIS mobil ilovasi HEMIS axborot tizimi bilan parallel ravishda, yagona texnologik yondashuv asosida ishlaydi. Shuning uchun HEMIS axborot tizimidagi barcha ma'lumotlar mobil ilovada ham avtomatik tarzda ko'rinadi hamda mobil ilova uchun alohida ma'lumotlar bazasi tashkil qilish va uni resurslar bilan to'ldirish talab etilmaydi.

Mobil ilova topshiriqlar, dars jadvali, fanlar, ma'lumotnomalar hamda profil bo'limlaridan tashkil topgan.

### 1. Topshiriqlar bo'limi

Ushbu bo'limda fanlar doirasida professor-o'qituvchilar tomonidan berilgan topshiriqlar, vazifalarni topshirishning so'nggi muddatlari (deadline), topshiriqqa necha ball berilishi haqida ma'lumotlar hamda qo'yilgan talablar yoki izohlar beriladi.

### 2. Dars jadvali bo'limi

Bu bo'limda semestrlar kesimida hafta kunlari bo'yicha o'tilgan yoki endi o'tiladigan fanlar ro'yxati, fanlarning boshlanish va tugash vaqtlari, fan o'qituvchisi, mashg'ulot turi to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi.

### 3. Fanlar bo'limi

Fanlar bo'limida o'tiladigan fan nomlari, dars soatlari, fan resurslari (kitoblar, ma'ruza matnlari, taqdimotlar, lug'atlar va hk.), talabning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari, qayta ishlash soatlari (agar mavjud bo'lsa) hamda shu kabi ma'lumotlar beriladi.

### 4. Ma'lumotnomalar bo'limi

Ushbu bo'limda Talaba ID guvohnomasining elektron varianti, shartnomalar, reyting daftarcha, o'quv varaqasi, nazoratlar jadvali, talaba davomati to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar, buyruqlar va boshqa tegishli ma'lumotlar keltiriladi.

### 5. Profil bo'limi

Bu bo'limda talabaning shaxsiy hamda ta'lim ma'lumotlari, shuningdek, mobil ilova sozlamalari joylashgan.



2-rasm. HEMIS Mobile ilovasi

Bugungi kunda HEMIS mobil ilovasidan 600 mingdan ortiq foydalanuvchi foydalanib kelmoqda.

HEMIS mobil ilovasidagi mavjud imkoniyatlar:

- Elektron Talaba ID guvohnomasi
- O'qish joyidan ma'lumotnoma olish imkoniyati
- To'lov shartnomasini yuklab olish imkoniyati
- Elektron diplom va ilovani yuklab olish imkoni
- Talabaga tegishli hujjatlarni yuklab olish imkoni
- Reyting daftarchani ko'rish hamda yuklab olish imkoni
- O'zlashtirish ko'rsatkichini kuzatib borish imkoni
- Buyruqlarni yuklab olish imkoni
- Davomatni ko'rib borish imkoni
- Dars jadvali bilan tanishish imkoni
- Nazorat jadvalini ko'rish imkoniyati

- Fanlar ro'yxatini ko'rish imkoniyati
- Fan topshiriqlarini yuklab olish hamda bajarilgan vazifalarni professor-o'qituvchilarga yuborish imkoniyati
- Fan resurslaridan foydalanish imkoni
- Unilibrary elektron kutubxonasidan foydalanish imkoni
- Boshqalar.

Bundan tashqari yuqoridagi imkoniyatlarni har bir semestr kesimida ko'rish, fan o'qituvchisi tomonidan yuborilgan topshiriqlarni bajarish, topshiriqqa qo'yilgan baho va izohlarni ko'rish hamda topshiriq muddatlari haqida ogohlantiruv olish imkoniyati mavjud. "Profil" menyusi orqali joriy kursi va mutaxassisligini ko'rish hamda tizimga kirish parolini o'zgartirishi mumkin.

### **Xulosa**

Shunday qilib, xulosa o'rnida aytish mumkinki, HEMIS Mobile ilovasi zamonaviy axborot tizimlarining eng maqbul namunalaridan biri sifatida ta'lim jarayonlarini boshqarishda katta ko'mak berayotgan HEMIS axborot tizimidan mobil qurilmalar orqali foydalanish imkonini beradi. Bu bilan yuqoridagi kabi qulayliklarga erishilib, vaqt tejalishi, imkoniyatlar kengayishi va yana bir necha qulayliklarga ega bo'lish kabi sifatlarga erishish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Khamdamov U., Abdullayev A., Elov J., Sultanov D. Conceptual Model of the Education Management Information System for Higher Education Institutions. International Journal of Advanced Trends in Computer Science and Engineering, 2020, Volume 9, No.5.
2. Jamshid Elov, Utkir Khamdamov. Development of a database of higher education process management information system based on the relational model , International Conference of Information science and communications technologies applications, trends and opportunities ICISCT 2021. 3-5 November, 2021. Tashkent, Uzbekistan, 5p
3. Abdullaev A., Khamdamov U. The concept of development of information systems and services in the system of higher education of the Republic of Uzbekistan. // EU-01- 002070 "Asian Intellectual Property" LLC, 2018.